



bilim va ko'nikmalariga tayanib, o'z qarorlarini qabul qilishga, turli faoliyatda ya'ni o'yin, mulohaza, ta'limiy va tadqiqot faoliyatlarida mustaqillikni namoyon qila boshlaydilar.

Muhokama. STEAM dasturining samaradorligini yanada kuchaytirish maqsadida ta'lim tashkilotlarida bolalarni ta'limga, ixtirolarga bevosita jalb etuvchi maxsus tajriba xonalari, to'garaklar, intellektual salohiyatini yanada oshiruvchi ijodiy musobaqalar, o'yinlar, har bir faoliyatni axborot kommunikativ texnologiyalar asosida olib borish orqali bolalarning qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, STEAM ta'limi bolalarni tajribalar o'tkazishga, modellar tuzishga, mustaqil ravishda loyihalar yaratishga, o'z g'oyalarini haqiqatga aylantirishga va bolaning o'ziga mahsulotni yaratishga undaydi. Ushbu ta'lim yondashuvi bolalarga nazariy olgan bilimlarini amaliyot bilan samarali tarzda birlashtirishga imkon beradi va butun umri davomida qo'llay olish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.V. Grosheva, L.G. Yevstafeva, D.T. Maxmudova, Sh.B. Nabixanova, S.V. Pak, G.E. Djanpeisova "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi T: 2018. 1-81-b;
2. Т.С. Волосовес, В.А. Маркова, С.А. Аверина. СТЕМ-образование детей дошкольного и младшего школьного возраста. М. Бином. Лаборатория знаний 2019.
3. G.Bogdanovich. Dopolnitelnaya obshchrazvivayushaya programma "Multstudiya Moy mir" Sverdlovskaya oblast, 2018 g.
4. Master-klass dlya pedagogov "Sozdanie multfilmov vmeste s detmi" M., 2018
5. Образовательный модуль "Дидактическая система Фридриха Фрёбеля". Маркова В. А., Аверин С. А. - М., 2018.
6. Н.Г. Зайцева. Робототехника в детском саду. Краснодар 2019
7. Э.Д. Жукова. Программа дополнительного образования по конструированию, ориентированная на детей от 5 до 7 лет «Лего-мастер». Излучинск, 2018
8. И.А. Помораева, В.А. Позина. Занятия по формированию элементарных математических представлений в средней группе детского сада. М: 2019
9. I.V. Grosheva, G.E. Djanpeisova, U.T. Mikailova, M.A. Kenjabayeva, N.A. Miftayeva. O'yin orqali ta'lim olish. T.:2020.
10. I.V. Grosheva, K.T. Olimov, V.A. Nazarova, G.E. Djanpeisova, U.T. Mikailova, D.A.Kenjabayeva, N.B.Gulyamova, N.A.Miftayeva. "Kuzatish va baholash". Toshkent.:2020

RASMIY NUTQNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI (NEMIS TILI MISOLIDA)

Kaxarova Mavluda Mukaramovna

Farg'ona davlat universiteti professori, f.f.n.

Annotatsiya: maqolada nemis tilidagi rasmiy nutqning (Amtssprache) leksik-semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Rasmiy uslubning ijtimoiy-lingvistik vazifasi aniqlik, neytrallik va me'yoriylilikni ta'minlashdan iborat. Tadqiqotda Fachwörter (sohaviy terminlar), Nominalstil (otli ifodalar) va Funktionsverbengefüge (funktional fe'l birikmalari) rasmiy nutqning asosiy tarkibiy qismlari sifatida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, matnlarda passiv tuzilmalar, predloglar (gemäß, hinsichtlich, betreffend) va sinonimik cheklovlarning roli tahlil etiladi. Rasmiy nutqning lingvistik o'rganilishi tarjima, til siyosati va nemis tili o'qitish metodikasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: rasmiy nutq, leksik-semantik xususiyatlar, Amtssprache, Fachwörter, Nominalstil, Funktionsverbengefüge, rasmiy uslub, til madaniyati, neytrallik.

ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ОФИЦИАЛЬНОЙ РЕЧИ (НА ПРИМЕРЕ НЕМЕЦКОГО ЯЗЫКА)

Аннотация: в статье исследуются лексико-семантические особенности официальной речи (Amtssprache) немецкого языка. Официальный стиль рассматривается как средство точной и нейтральной коммуникации. Анализируются ключевые элементы – Fachwörter, Nominalstil и Funktionsverbengefüge, обеспечивающие ясность и однозначность высказывания. Отмечается роль пассивных конструкций, предлогов gemäß, hinsichtlich, betreffend и ограниченной синонимии.



Подчеркивается значение официальной речи для перевода, языковой политики и методики преподавания немецкого языка как иностранного.

Ключевые слова: официальная речь, лексико-семантические особенности, Amtssprache, Fachwörter, Nominalstil, Funktionsverbgefüge, официальный стиль, языковая культура, нейтральность.

LEXICAL AND SEMANTIC FEATURES OF OFFICIAL SPEECH (ON THE EXAMPLE OF THE GERMAN LANGUAGE)

Abstract: the article explores the lexical and semantic features of German official language (Amtssprache). The official style is viewed as a means of precise and neutral communication. Core elements such as Fachwörter, Nominalstil, and Funktionsverbgefüge are analyzed as key markers of semantic clarity. The study also discusses the use of passive constructions, prepositions (gemäß, hinsichtlich, betreffend), and limited synonymy. It concludes that official language plays an essential role in translation, language policy, and teaching methodology of German as a foreign language.

Keywords: official speech, lexical-semantic features, Amtssprache, Fachwörter, Nominalstil, Funktionsverbgefüge, official style, linguistic culture, neutrality.

Zamonaviy ijtimoiy hayotda rasmiy nutq (*Amtssprache*) jamiyatning siyosiy, huquqiy va ma’muriy tizimlarida aloqa vositasi sifatida alohida o’rin tutadi. U davlat boshqaruvi, diplomatik yozishmalar, qonun hujjatlari, muassasalararo munosabatlar hamda ijtimoiy institutlar faoliyatida kommunikativ barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Nemis jamiyatida *Amtssprache* faqat ma’muriy muloqot vositasi emas, balki nutq madaniyatining muhim ko’rinishi sifatida ham qaraladi [3.67]. Rasmiy nutqning asosiy ijtimoiy-lingvistik vazifasi ma’lumotni aniqlik, neytrallik va obyektivlik bilan ifodalashdir. Shu jihatdan, nemis tilidagi rasmiy uslub kommunikativ intizomni, til madaniyatining me’yoriy shaklini va ijtimoiy mas’uliyatni ifodalaydi.

Nemis tili tizimida rasmiy nutqning shakllanishi tarixan davlat boshqaruvi va huquqiy soha bilan bog’liq bo’lib, Kanzleisprache (idoraviy til) dan *Amtssprache* (rasmiy til)ga aylanish jarayonida aniq terminologiya, leksik standartlar va grammatik modellar mustahkamlangan [5.103]. Bugungi kunda nemis rasmiy nutqi Yevropa Ittifoqi doirasida ham integrativ kommunikatsiya vositasi sifatida e’tirof etilgan bo’lib, u madaniyatlararo muloqotda aniqlik va me’yoriylikni kafolatlaydi.

Nemis rasmiy nutqining leksik qatlamida asosan *Fachwörter* (sohaviy terminlar), *Nominalstil* (otli ifoda shakli) va *Funktionsverbgefüge* (funktional fe’l birikmalari) ko’p qo’llaniladi. Mazkur ifodalar aniq chegaralarni ta’minlab, semantik ikkiyoqlamalilikni kamaytirishini kuzatish mumkin. Masalan, *in Kraft treten* (kuchga kirmoq), *zur Verfügung stellen* (ixtiyoriga berilmoq), *zur Kenntnis nehmen* (ma’lumot uchun qabul qilmoq) kabi birliklar rasmiy nutqning tipik frazeologizmlaridir. Ular semantik jihatdan qat’iy, konnotativ ma’nosiz, emotsional neytral birliklar bo’lib, *Denotation* tamoyiliga asoslanadi [1.78].

Rasmiy matnlarda shaxsiy olmoshlar, emotsional baholovchi birliklar va og’zaki ifodalar deyarli ishlatilmaydi. *Ich* (men) yoki *wir* (biz) o’rniga *man*, *die Behörde* (**rasmiy boshqaruv organi**), *das Ministerium* (Vazirlik) kabi jamoaviy subyektlar ishlatiladi. Bu holat rasmiy nutqning obyektivlik tamoyilini aks ettiradi. Duden tahririyatining qayd etishicha, rasmiy nutqda “aniqlik, qisqalik, neytrallik va stilistik intizom” (*Präzision, Kürze, Neutralität, Stilstrenge*) asosiy mezonlar hisoblanadi [2.207].

Nemis rasmiy nutqi *semantische Neutralität* — ma’no betarafligi tamoyiliga tayangan holda shakllanadi. Bu uslubda har bir so’zning denotativ (bevosita) ma’nosi muhim, konnotativ (ko’chimli yoki emotsional) ma’no esa istisno holatlarda qo’llaniladi. Masalan, *Beschluss fassen* (qaror qabul qilish) birikmasida har bir leksik birlikning semantik chegarasi aniq va funktsionaldir. Bunday birliklar semantik jihatdan *lexikalische Festigkeit* (barqarorlik) va *Bedeutungseindeutigkeit* (ma’no yagonaligi) tamoyillariga bo’ysunadi.

Metaforik yoki tasviriy birliklar (*bildhafte Ausdrücke*) rasmiy uslubda cheklanadi, chunki ular subyektiv bahoni kiritadi. *Verwaltungssprache* (idoraviy nutq)da metaforik ifodalar o’rniga aniq terminlar tanlanadi. Masalan, *Maßnahmen ergreifen* (choralar ko’rmoq) o’rniga *Schritte unternehmen* (harakatga kirishmoq) ishlatilmaydi, chunki u so’zlashuv nutqiga xosdir. Röhrich ta’kidlaganidek, rasmiy uslub “tilning tejamkorligi” (*Sprachökonomie*) va “me’yoriy semantika” (*normative Semantik*) asosida tashkil topadi [4.3012].



Nemis rasmiy nutqining sintaktik tuzilmasi ko‘pincha nominal shaklga asoslangan. Masalan, *Die Umsetzung des Projektes erfolgt gemäß den Vorschriften* (Loyiha belgilangan tartib-qoidalarga muvofiq amalga oshirilmogda). Bu kabi jumlar axborot berishni oshiradi va subyektiv niyatni kamaytiradi. Rasmiy matnlarda *Passivkonstruktionen* (passiv tuzilmalar) keng qo‘llanadi. Masalan, *Der Antrag wird geprüft* (Ariza ko‘rib chiqilmogda), *Das Gesetz wurde verabschiedet* (Qonun qabul qilindi) kabilar.

Leksik-semantik jihatdan *Konnektoren* (bog‘lovchi birliklar) – *gemäß, hinsichtlich, betreffend, im Falle von* (ga muvofiq, asosida, binoan, bo‘yicha) matnlarni mantiqiy bog‘lab, argumentativ strukturaning aniqligini ta’minlaydi. Ular yordamida matnning ichki bog‘liqligi kuchayishini kuzatish mumkin. Brinker rasmiy nutqni “ma’lumotni minimal tafovut bilan yetkazuvchi kommunikativ model” sifatida ta’riflaydi [1.119].

Rasmiy uslubda sinonimiya juda chegaralangan, chunki sinonimlarning semantik soyasi har doim ma’lum xissey yoki stilistik rangga ega bo‘ladi. Masalan, *kündigen* (rasmiy bekor qilish) o‘rniga *aufheben* (bekor qilmoq) yoki *streichen* (bekor qilmoq) ishlatilsa, ma’no noaniqligi yuzaga keladi. Shu sababli, rasmiy nutqda so‘z tanlovi semantik minimallashtirishga asoslanadi.

Weinrich fikricha, rasmiy nutqda “denotativ qatlam ustun, konnotativ qatlam esa turg‘unlashtirilgan holda mavjud”. Bunday qatlamlilik rasmiy kommunikatsiyada muloqot ishonchligini oshiradi [5.69].

Nemis rasmiy nutqi o‘zining leksik-semantik tizimi, grammatik modeli va stilistik intizomi bilan kommunikativ madaniyatning eng yuqori shaklini ifodalaydi. U davlat boshqaruvi, huquqiy tizim va diplomatik muloqotda aniqlik, betaraflik va normativlikni ta’minlaydi. Rasmiy nutqdagi *Fachwortschatz* (terminlar tizimi), *Nominalstil* (harakatni ot bilan ifodalash) va *Funktionsverbengefüge* (fe’lning asosiy ma’nosini otga yuklash) birliklari semantik jihatdan barqaror, hissiy jihatdan neytral va kommunikativ jihatdan samaralidir.

Nemis tilshunosligi doirasida rasmiy nutqni o‘rganish natijalari til siyosatini takomillashtirish, rasmiy hujjatlar tarjimasi va nemis tili o‘qitish metodikasini boyitishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, rasmiy uslubni lingvistik tahlil qilish nafaqat til tizimini, balki ijtimoiy muloqot madaniyatini ham chuqurroq tushunish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Brinker, K. *Linguistische Textanalyse: Eine Einführung in Grundbegriffe und Methoden*. Berlin: de Gruyter. 1980
2. Duden Redaktion. *Duden – Die Grammatik*. Mannheim: Dudenverlag. 2009
3. Glück, H. *Metzler Lexikon Sprache*. Stuttgart: Metzler. 2010
4. Röhrich, L. *Lexikon der sprichwörtlichen Redensarten*. Freiburg: Herder. 1991
5. Weinrich, H. *Textgrammatik der deutschen Sprache*. Stuttgart: Klett. 1993
6. Botirova Sevara Mamurovna, Tursunov Ramziddin Abdixalil o‘g‘li. (2025). ma’naviy barkamol yoshlar yangi o‘zbekiston bunyodkori. *ma’naviy barkamol yoshlar yangi o‘zbekiston bunyodkori*, 1(1), 98-102.

ONA TILI TA’LIMIDA FANLARARO INTEGRATSIYA ORQALI O‘QUVCHILARNI DIZAYN FIKRLASHGA O‘RGATISH

Valiyeva Nargiza Athamboyevna

Qo‘qon universiteti o‘qituvchisi

nargizavaliyeva1992@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola ona tili ta’limida fanlararo integratsiya orqali o‘quvchilarni dizayn fikrlashga o‘rgatishning zamonaviy yondashuvlarini ko‘rib chiqadi. Fanlararo integratsiya o‘quvchilarga turli fanlar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni tushunishga yordam berib, ularning til o‘rganish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Maqolada interaktiv loyihalar, multimedia vositalari, boshqa fanlar bilan hamkorlik, muammoli vazifalar va tijorat va ijtimoiy loyihalar kabi zamonaviy yondashuvlar muhokama qilinadi. Ushbu yondashuvlar orqali o‘quvchilar kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va haqiqiy hayotiy muammolarni hal qilishda amaliy ko‘nikmalarni egallash imkoniyatiga ega bo‘lishadi.

Kalit so‘zlar: ona tili, fanlararo integratsiya, dizayn fikrlash, kreativ fikrlash, multimedia, muammoli vazifalar